

QOBILIYATLAR VA ULARNING SHAXSNING RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

SHOMUROTOV ULUGBEK MELIKBOBOYEVICH

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

o'qituvchi u.shomurotov@dtpi.uz

TURDIMURATOVA KIBRIYAXON YUNUSOVNA

SAPAROVA MASHXURA DAVRONBEKOVNA

XURRAMOVA SHOHNOZA SOBIROVNA

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi

1-bosqich talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada aynan qobiliyatning shaxs rivojlanishiga qanchalik darajada ta'sir ko'rsata olishi va shaxsdagi mavjud bo'lgan tug'ma qobiliyatlar to'g'risida turli olimlarning qarashlari hamda fikrlar keltirilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, layoqat, istedod, qobiliyat, salohiyat, bilim, ko'nikma, faoliyat, Albert Eynshteyn, Nikolay Lobachevskiy, I. P. Pavlov, Rubinshteyn, Leytes va boshqalar...

Qobiliyat — kishining muayyan faoliyatiga bo'lgan layoqatidir. Kishilar qobiliyati nihoyatda xilma-xil bo'ladi. Har bir kasb kishidan mehnatda, ijodiyotda va o'qish faoliyatlarida tegishli qobiliyat talab etadi. Kishi faoliyatining har xil turlariga muvofiq, nazariy va amaliy qobiliyatlarni, matematika, texnika, musiqa, adabiyot, pedagogika, xo'jalik, tashkilotchilik va boshqa sohalariga oid qobiliyat turlari bo'ladi. Qobiliyatning bunday xususiyatlari maktab bolalarida ham ko'rinadi.

Qobiliyat — [insonning individual salohiyati](#), imkoniyatlari. Qobiliyat [bilim](#)dan keskin farqlanadi, [bilim mutolaa](#) natijasi hisoblanadi, qobiliyat [shaxsning psixologik](#) va [fiziologik](#) tuzilishining [xususiyati](#) sanaladi. Qobiliyat [ko'nikma](#), [malakadan](#) farq qiladi. Qobiliyat [insonga](#) berilgan in'om sifatida qaraladi. Aksariyat ilmiy [manbalarda](#) mohirlik bilan qobiliyat aynanlashtiriladi.

Qobiliyat [inson](#) tomonidan [ko'nikma](#) va [malaka](#)larning egallanishi [jarayonida](#) takomillashib boradi. Har qanday qobiliyat turi [shaxsga](#) tegishli murakkab [psixologik tushuncha](#)dan tashkil topgan bo'lib, u [faoliyatning](#) talablariga mutanosib [xususiyatlar](#) tizimini o'z ichiga oladi.

Ba'zi bir o'quvchilar o'zlarining zehni o'tkirliklari bilan, boshqalari poetik asarlarni aniq idrok qilishliklari bilan, uchinchi esa, texnik ijodkorligi bilan, to'rtinchi esa, o'zining laboratoriya mashg'ulotlariga usta bo'lish va hokazolar bilan ajralib turadi. Ayrim kishilarning qobiliyati birgina sohada emas, balki bir necha sohalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Bunday kishilar har tomonlama qobiliyatli

kishilardir. Odamning qobiliyatlarida tug'ma xususiyatlar ham namoyon bo'ladi. Qobiliyatlar to'g'risida umumiy tushunchani vujudga keltirish uchun ularga aloqador omillar, tarkiblar bo'yicha ayrim ma'lumotlar keltirish maqsadga muvofiq:

A) qobiliyatlar shaxsning psixologik xususiyatlari ekanligi;

B) mazkur xususiyatlarga bilim, ko'nikma, malaka orttirish bog'liq;

V) ushbu xususiyatlarning o'zi bilim, ko'nikma va malakalarga taalluqli emasdir. Psixologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, oliy ta'lim jarayonida o'zlashtirish ko'rsatkichi bo'yicha "o'rtamiyona" talaba keyinchalik ijobiy tomonga o'zgarishi, boshqa soha (tarmoq)da yuksak natijalarga erishishi, hatto mutaxassisligiga yondosh ixtisoslikda o'zini ko'rsatishi mumkin. Ta'lim va ijtimoiy turmushda o'quvsiz, "Yaroqsiz" deb basholangan insonlar keyinchalik biron-bir soshaning yetakchi mutaxassisi sifatida elga tanilishi, yuqori lavozim egallashi, tadbirkor shaxs sifatida kamol topishi hodisasi tajribada ko'p uchraydi. Shuning uchun bilim, ko'nikma va malakalarni egallash (o'zlashtirish) jarayonida qobiliyatlar namoyon bo'lsa-da, lekin ular bilim, ko'nikma, malakalarga bevosita taalluqli emasdir xuddi shu boisdan, ular bir-biri bilan o'zaro munosabat va nisbatan nuqtai nazardan tashlil qilinganida qobiliyatlar bilan bilimlar, qobiliyatlar bilan ko'nikmalar mohiyat, mazmun, ma'no jihatidan bir-biridan tafovut qiladi. Ushbu psixologik hodisa obrazliroq qilib tushuntirilganida, bilim ko'nikma, malaka mashqlanish tufayli egallaniladigan aniq voqelik deb tasavvur qilinsa, qobiliyatlar shaxsning ruhiy olamidagi hali ro'yobga chiqmagan imkoniyatidir. Masalan, talabaning o'qishga kirishi u mutaxassis sifatida kasbiy kamolot uchun imkoniyat tarzida gavdalanishi kabi (uning intilishi, ob'ektiv va sub'ektiv muhit, salomatligi va boshqalar), shaxsning qobiliyatlari kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallash uchun imkoniyat tariqasida namoyon bo'ladi. Kasbiy bilim va ko'nikmalar egallandimi yoki yo'qmi, imkoniyat ro'yobga chiqdimi yoki ushalmagan orzu sifatida qolib ketdimi-bularning barchasi ko'pgina omillarga va sharoitlarga boqliqdir. Imkoniyatlar tizimidan tashkil topgan bo'lib, u yoki bu faoliyatidagi zaruriy mahorat darajasi haqiqat hisoblanadi. Insonda namoyon bo'layotgan tasviri san'at qobiliyati uning rassom sifatida shakllanishiga kafolat bera olmaydi.

Rassomlikni egallashi uchun maxsus ta'lim berilishi, tabiatga o'zgacha munosabati, idrok qilish salohiyati, shaxsiy fazilati, salomatligi, matolar, mo'yqalamlar, bo'yoqlar, moslama asboblari va boshqalar muhayyo bo'lishi lozim. Ta'kidlab o'tilgan vositalar, shart-sharoitlarsiz tasviri san'at qobiliyatlari taraqqiy etmay turiboq, ilk ko'rinishidayoq so'na borishi mumkin. Ijtimoiy tarixiy taraqqiyot pallasida bunday hodisalar son-sanoqsiz. Psixologiya fani qobiliyatlar bilan faoliyatning muhim jabhalari bo'lmish bilim, ko'nikma va malakalarning aynan bir narsa ekanligini rad etar ekan, ularning birligini e'tirof qiladi. Shuning uchun qobiliyatlar faqat faoliyatda ro'yobga chiqadi, lekin shunda ham aynan shu

qobiliyatlarsiz amalga oshirilishi amri mahol faoliyat ko'rinishlaridagina aks etadi, xolos.

Talabada kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar tizimi, ularning barqarorligi, shakllangan shaxsiy ish uslublari mavjud emasligiga asoslanib, ularni jiddiy tekshirib, tashxis qilmasdan turib, shoshilinch tarzda unda qobiliyatlar yo'q degan xulosa chiqarish oliy maktab o'qituvchisining qo'pol psixologik nuqsoni hisoblanadi. Bolalik davrida u yoki bu qobiliyatlarning atrof-muhitdagi odamlar tomonidan tan olinmaganligi, keyinchalik xuddi ana shu qobiliyatlari tufayli jahonda munosib shon-shushrat qozonishga musharraf bo'lgan juda ko'p allomalarning nomi olamda mashhur, chunonchi Albert Eynshteyn (nisbiylik nazariyasi asoschisi Nikolay Lobachevskiy (yangi geometriya yo'nalishi asoschisi) va boshqalar o'qishida genial olim bo'lib voyaga yetishishi dalolatnomasi yo'q edi.

Qobiliyatlar bilim, ko'nikma va malakalarda aks etmaydi, balki ularni. Egallash dinomikasida namoyon bo'ladi. Faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonida yuzaga chiqadigan farqlar qobiliyatlar mulohaza yuritish imkonini beradi. Demak, shaxsning faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish shartli hisoblangan, bilim ko'nikma va malakalarni egallash dinomikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual xususiyati qobiliyatlar deyiladi. Ushbu xususiyatni aniqlash uchun ba'zi bir omillarni tahlil qilish maqsadga muvafiq;

A) shaxsning muayyan sifatleri yig'indisi belgilangan vaqt oraliqida egallagan faoliyati talabalariga javob bersa unda mazkur faoliyatga nisbatan qobiliyati mavjuddir;

B) inson shunday holatlarda faoliyat talabiga javob bera olmasa psixologik sifatlar, ya'ni qobiliyatlar mavjud emasdir (juda zaifdir). Lekin xususiyatli shaxs ko'nikma va malakalarni egallay olmaydi degan ma'no anglatmaydi, biroq ularni egallash vaqti cho'zilib ketadi, xolos. Shunday qilib, qobiliyatlar individual psixologik xususiyatlar bo'lishi bilan birga:

A) ularni shaxslarning mavjud boshqa xususiyatlariga, xarakter fazilatlariga, hissiy kechinmalariga va boshqalarga qarama-qarshi qo'yish mumkin emas;

B) shuningdek, qobiliyatlarni shaxsning mazkur xususiyatlari bilan bir qatarga qo'yish nuqsonlarni keltirib chiqaradi.

Shuni ta'kidlash joizki, mulohaza bildirilgan sifatlardan ba'zi biri yoki ularni yig'indisi faoliyat talablariga javob bera olsa yoki ularni ta'sirida vujudga kelsa, u holda shaxsning mazkur individual xususiyatlarini qobiliyatlar deb atash imkoniyati tug'iladi. Ma'lumki, pedagogik qobiliyatlar tuzilishida yetakchi hislatlar sifatida pedagogik odob(takt), bolalarni sevish o'quvchilar jamoasini tashkil qilish va uni boshqarish, kuzatuvchanlik, talabchanlik bilimlarga chanqoqlik tan olinadi. O'qituvchilik qobiliyatining yordamchi (qo'shimcha) fazilatlariga quyidagilar kiradi: artistlik, nutqiy qobiliyat, diqqatni taqsimlash, akademik qobiliyatlar va hokazo.

Pedagogik qobiliyatlarning yetakchi (asosiy) va yordamchi (qo'shimcha) tarkiblari, jabhalari ta'lim jarayoni muvaffaqiyatini ta'minlaydigan birlikni (birikuvni) yuzaga keltiradi hamda o'qituvchi shaxsi bilan bog'liq bo'lgan hamkorlik individual faoliyatini tashkillashtiradi. Qobiliyatlardan

muayyan darajada umumiy va torroq ma'noda maxsus sifatlarni ajratish orqali ma'lum turkum tizimini yuzaga keltirish mumkin. Bundan kelib chiqqan holda qobiliyatlar guruhiga ajratish maqsadga muvofiq. Umumiy qobiliyatlar (sifatlar) maxsus qobiliyatlarga (sifatlarga) zid tarzda taqin qilish mumkin emas. Shaxsning umumiy qobiliyatlari ularni hosil qiluvchi omillar yaqqol psixologik hodisa yoki voqelikdir. Maxsus qobiliyatlar ko'lam jihatdan torroq bo'lishiga qaramay, chuqurroq mohiyatni o'zlarida mujassamlashtiradi. Rus olimi I. P. Pavlov o'zta'limotida "badiiy", "fikrlovchi", "o'rta" tiplarga ajratilgan shaxslarning ana shu uchta tipdan bittasiga taalluqli ekanligini tavsiflab beradi. Muallif ushbu tipologiyani yaratishda oliy nerv faoliyatining birinchi va ikkinchi signal tizimidan iboratligi to'g'risidagi ta'limotiga asoslanadi. Birinchi signallar va ikkinchi signallar tizimi esa obrazlar haqida so'zlar orqali signal berishdan iboratdir.

Ikkinchi signallar tizimsi I.P.Pavlov tomonidan "signallarning signali" deb nomlangan edi. Ushbu tipologiyani osonroq qilib quyidagicha tushuntirish mumkin:

- 1) shaxs psixik faoliyatida birinchi signallar tizimining signallari nisbatan ustunlik qilsa inson "badiiy" tipga taalluqlidir;
- 2) mabodo "signallarning signali" nisbatan ustuvor bo'lsa bu shaxs "fikrlovchi tipga" munosibdir;
- 3) agarda har ikkala signallar aralashib ketgan bo'lsa (birortasining ustunligi sezilmasa) bu inson "o'rta tipga" mansub odamdir.
- 4) Tipologiyaning o'ziga xos tomonlari qisqacha ifodalanganda yoki tavsif qilinganida quyidagilar namoyon bo'ladi:

"Badiiy tip" uchun bavo-surot, jonli tasavvur, yorqin idrok, his-tuyg'ular (emotsiyalar) natijasida vujudga keladigan obrazlarning yorqinligi xosdir. Odatda qobiliyatlar insonga shaxsning barcha individual psixologik xususiyatlari kabi tabiat tomonidan tug'ma ravishda tayyor holda berilmaydi, balki hayot davomida va faoliyat jarayonida shakllanadi. Ilmiy psixologiya qobiliyatlarning tug'maligi nazariyasini inkor etib, shaxs qobiliyatlarining noma'lum tabiiy omillar tomonidan azaliy belgilanishi to'g'risidagi tasavvurlarga qattiq zarba beradi. Shuni uqtirish joizki, qobiliyatning tug'maligini inkor qilish mutloq xususiyatga ega emas, albatta. Lekin qobiliyatning tug'ma ekanligini tan olmaslik, miya tuzilishi bilan bog'liq differensial xususiyatlarning tug'maligini inkor qiladi degan so'z emasdir. Kishilarda rivoj topib, ulaming qobiliyatlarida namoyon bo'lgan tug'ma xususiyatlar iste'dod deb ataladi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, qobiliyatning o'sishida muayyan faoliyatga qiziqish va muhabbat qo'yish bilan bir qatorda, kishi o'z ustida ishlashi, uning mehnat faoliyati hamda bilimlari, ko'nikma va malakalarini ijodiy ravishda qo'llay olishi ham katta ahamiyatga egadir. Ayrim kishilar bolalik va o'quvchilik chog'larida, ular uchun qulay sharoit bo'lishiga qaramay, hech qanday o'z zehni va qobiliyatlarini ko'rsata olmaganliklari ma'lumdir. Bunday kishilar keyinchalik sabot va chidam bilan o'z ustlarida mustaqil ishlashlari natijasida o'zlarining zo'r qobiliyatga ega ekanliklarini ko'rsatganlar. Ma'lumki, maktabdagi o'quvchilar orasida darslardan ulgurmaydigan bolalar ham uchraydi. Bunday o'quvchilarning darslardan ulgurmasdan orqada qolish sababini sinchiklab tekshirish shuni ko'rsatadiki, ularda o'qishga moyillik bo'lmaydi yoki ular dars tayyorlash yo'llarini bilmaydilar. Ularda o'qishga bo'lgan qiziqish va istak tug'dirish, shuningdek, ularda dars tayyorlash malakasini hosil qilish ularning darsdan ulgurib borishlariga imkoniyat beradi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya jarayonida har bir pedagog o'quvchilarga muayyan fanlardan bilimlar berish, malaka hosil qilish, ularning his va irodasiga ta'sir etish bilan bir qatorda, ularning har birini jamiyatning munosib quruvchilari bo'lib yetishishlari uchun tinmay o'z ustilarida ishlash lozim ekanligini ular ongiga singdirish kerak. O'quvchilarning kelajak mehnat faoliyatlaridagi muvaffaqiyatlari faqat ularning maktabda oladigan bilim va malakalariga bog'liq bo'lmay, balki, asosan, o'zlarining bundan keyingi o'z ustilarida tinimsiz ishlashlari orqali yangi bilimlar hosil qilib borishlariga bog'liq ekanligini ularga uqtirib o'tish zarurdir. Kishining qobiliyat va iste'dodi mehnatda namoyon bo'ladi, shu bilan birga kishi qobiliyatining o'zi ham faqat sabot bilan mehnat qilish, tirishib tegishli bilim va malaka hosil qilish orqali kamol topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. E.G'oziyev "Umumiy psixologiya" Psixologiya mutaxassisligi uchun o'quv qo'llanma (Toshkent - "Universitet" – 2002)24-25 sahifa
2. P.I.Ivanov «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2008 386-387 sahifa
3. Sh.A.Do'stmuhammedova, Z.T.Nishonova, P.S.Ergashev, U.G'.Rahimova "Tortinchoqlik: hayotiy savollarga ilmiy- amaliy javoblar (Toshkent 2013) 99-100 sahifa
4. Abdukarimovich, Y. T., Isokovich, U. F., & Melikmurodovich, S. U. B. (2023). FORMATION OF A RELATIONSHIP OF RESPONSIBILITY TO THE FAMILY IN YOUNG PEOPLE.
5. Melikboboyevich, S. U. (2024). BOLALARNING PSIXIK RIVOJLANISHIGA O 'YINCHOQLARNING TA'SIRI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 172-179.
6. MELIKBOBOYEVICH, S. U., QIZI, O. R. Z. S., & QIZI, Q. K. A. (2024). INSONIY MUOMALA VA MULOQOTNING PSIXOLOGIK

- VOSITALARI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 180-188.
7. Melikboboyevich, S. U., & Annamuhimmat o'g'li, S. A. (2024). Psixodiagnostika metodlari va ulardan foydalanish. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 165-171.
 8. Melikboboyevich, S. U. (2024). MEASURES TO PREVENT AGGRESSIVE ATTITUDES BY THE TEACHER TO THE STUDENT FOR LATING TO THE LESSONS. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 127-134.
 9. Abdukarimovich, T. Y. L., Melikboboyevich, S. U., & Isokovich, U. F. (2024). Xotira haqidagi qarashlar va xotirani rivojlantirish. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 109-117.
 10. Melikboboyevich, S. U., & Yusufaliyevna, H. S. (2024). EDUCATOR'S SKILL IN ELIMINATING AGGRESSIVE SITUATIONS OF CHILDREN RAISED IN PRESCHOOL EDUCATION ORGANIZATION. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 611-616.
 11. Melikboboyevich, S. U. (2024). CHANGES IN STUDENTS' MENTAL STATUS DURING MASTERING THEORETICAL AND PRACTICAL TRAINING (IN THE EXAMPLE OF AGGRESSION). *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 142-148.
 12. Melikboboyevich, S. U., Xudayar o'g'li, M. A., & Dilshod Abdimo'min o'g, M. (2024). SPORTCHILARDA HISSIY-IRODAVIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH. *NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI*, 1(2), 72-84.
 13. Melikboboyevich, S. U. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR FAOLIYATNING PSIXOLOGIK TAHLILI. *NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI*, 1(2), 93-103.
 14. Melikboboyevich, S. U. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA O'YIN FAOLIYATINING XUSUSIYATLARI. BOLA HAYOTIDA O'YINNING AHAMIYATI. *NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI*, 1(2), 85-92.